

MAKTAB TIZIMIZIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mahmudova Mahfuza Istamovna

Osiyo xalqaro universiteti 1-kurs magistiri

maxmudovamahfuza88@gmail.com

Ilmiy rahbar: **O.R.Avezov**

Osiyo xalqaro universiteti professori

Annotatsiya: ushbu maqolada maktab tizimida psixologik yordam ko'rsatishning zamonaviy ko'rinishi borasida olib borilgan tadqiqotimizning natijalari va ilmiy ahamiyati borasida so'z yuritilgan. Tadqiqotimizda foydalanilgan yangi va xalqaro talablarga javob beruvchi metodlar orqali maktab tizimida psixologik xizmat ko'rsatishning takomillashuvining an'anaviy metodlardan farqi va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan. Shuningdek, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va ruhiy salomatligini ta'minlashda psixologik xizmatning samarali usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: psixologik xizmat, maktab psixologi, o'quvchi psixologiyasi, maslahat, psixokorreksiya, zamonaviy psixologiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются результаты проведенного исследования и его научная значимость в области современных подходов к оказанию психологической помощи в школьной системе. На основе новых методов, соответствующих международным требованиям, показаны отличия усовершенствованных способов организации психологической службы в школах от традиционных методов, а также их практическая значимость. Кроме того, освещены эффективные методы психологической поддержки, направленные на обеспечение личностного развития учащихся, их социальной адаптации и психического здоровья.

Ключевые слова: психологическая служба, школьный психолог, психология учащихся, консультирование, психокоррекция, современная психология.

Abstract: This article discusses the results and scientific significance of our research on modern approaches to providing psychological assistance within the school system. Using innovative methods that meet international standards, the study highlights the differences between improved



psychological service practices and traditional approaches, as well as their practical importance. Furthermore, effective methods of psychological support aimed at ensuring students' personal development, social adaptation, and mental well-being are described.

Keywords: *psychological service, school psychologist, student psychology, counseling, psycho-correction, modern psychology.*

Kirish

Ta'lim va salomatlik o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, maktab bolaning ijtimoiy hamda hissiy kamolotida muhim o'rin tutadi, bu esa o'z-o'zidan uning sog'lig'iga ham ta'sir qiladi. Bundan tashqari, majburiy ta'lim sababli bolalar va o'smirlar kunning asosiy qismini maktabda o'tkazishadi. Shuning uchun ham maktablar ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolarni erta aniqlash, ularning oldini olish va o'z vaqtida aralashib, kasallik kuchayib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun eng qulay va samarali maskandir. Yana bir muhim Tomoni shuki, ruhiy ko'mak xizmatlarining aynan maktab ichida tashkil etilishi ham moddiy jihatdan tejamkor, ham o'quvchilar uchun juda yaqin va qulaydir .

Bugungi kunda maktab tizimi nafaqat ta'lim va tarbiya uchun mas'ul, balki o'quvchilarning psixologik holatini yaxshilash va har bir o'quvchining psixologiyasini o'rganib, doimiy ravishda xabardor bo'lishi ham kerak hisoblanadi. Sababi zamon tez rivojlanayotgani, raqamli texnologiyalarning hayotimizning har bir jabhasiga jadallik bilan kirib kelshi hayotimizni osonlashtirish bilan birgalikda yoshlarning ruhiy holatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti. Shunday ekan biz pedagog-psixologlardan ogohlik va hushyorlik talab qilinadi. Hayotimizning har bir jabhasiga kirib kelib mavjud tizimni butkul bo'lmasada sezilarli darajada o'zgartirib borayotgan sun'iy intellekt qurilmalarini bugun biz ham maktab tizimining psixolog vazifalarini yanada osonlashtirish va yaxshilash maqsadida foydalanishni boshladik. Albatta, bu o'quvchilar uchun ham qiziqarli hamda vaqtdan unumli foydalanish kabi yutuqli tomonlarni olib kirishi bilan birgalikda maktab psixologi va pedagog xodimlarni yanada xushyor va sergak bo'lishga chaqiradi. Bolalarning psixologik holatini aniqlash uchun bugungi kunda an'anaviy qog'ozli testlardan emas balki, elektron online testlardan foydalanish urf bo'lmoqda. Bunday testlarning ko'pchiligi telegram botlari orqali nomsiz so'rovnomalar va bajargan shaxsi boshqalarga ko'rinmaydigan qilib tuzilgan testlar orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z o'rnida shaxsiy ma'lumotlarning tarqalib ketmasligi uchun bu jarayonlarga mas'ul



shaxslarning zimmasiga yanada sergak bo'lishlikni yuklaydi. Xalqaro tajribaga nazar tashlaydigan bo'lsak, rivojlangan mamlakatlarda ham maktab psixologiyasida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishda axloqiy va huquqiy me'yorlar birinchi o'ringa qo'yiladi. Demak, zamonaviy maktab pedagog-psixologi nafaqat kuchli psixodiagnost, balki raqamli savodxonlik hamda kiberxavfsizlik ko'nikmalariga ega bo'lgan zamon mutaxassisi bo'lishi davr talabidir. Shunday ekan tadqiqotimiz davomida bir qancha muammolarga duch keldik. Quyida tadqiqotimiz davomida aniqlangan bugungi kunda maktab yoshidagi bolalar bilan ishlaydigan maktab psixologlarining oqsaydigan tomonlarini keltirib o'tamiz:

- Maktab yoshidagi bolalar bilan ishlaydigan psixolog kadrlarning zamonaviy texnologiyalar jumladan kompyuter bilan yetarlicha ishlab bilmasligi;

- Nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilish;

- Diagnostika asbob-uskunalarining yetishmasligi;

- Psixolog kadrlarning yetishmasligi: odatda bitta maktabda bitta psixolog ishlaydi ammo bu butun boshli maktab uchun yetarli emas;

- Maktab hududi atrofida yashaydigan psixolog kadrlar: ya'ni maktab bolalari o'zlarining psixologik muammolarini maktab psixologlariga aytisholmaydi sababi odatda maktab bolalari o'sha hududda istiqomat qiluvchi bolalar hisoblanadi agarda psixolog ham shu hududga (mahalla, shaharcha) mansub bo'lsa bu ish samaradorligini pasaytiradi;

Tadqiqotimiz davomida biz ushbu aniqlangan muammolarga ushbu maqolamizda quyidagicha maktab tizimida psixologik xizmat ko'rsatish usullarini takomillashtirishning zamonaviy yechimlarini keltirib o'tdik.

Maktab yoshidagi bolalar bilan ishlaydigan psixolog kadrlarning zamonaviy texnologiyalar jumladan kompyuter bilan yetarlicha ishlab bilmasligi sababli ular uchun maxsus kurslar, malaka oshirish darslarini tashkillashtirish zarur. Har 6 oyda maktabdan uzoqlashmagan holatda maktab hududida mana shunday darslarni tashkillashtirish zarurdir.

Nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilish: oliy ta'lim muassasalarida psixologiya yo'nalishi bitiruvchilarining oxirgi semestrini to'liq maktab amaliyotiga yo'naltirish va ularga tajribali amaliyotchi psixologlarni ustozishogird tizimi asosida biriktirish. Tajribali psixologlar bilan haftada bir kun o'quv kuni tashkil qilish. Bu yerda yosh mutaxassislar tajribali kadrlar rahbarligida real maktab muammolari ustida tahliliy ish olib boradilar. Muammoli vaziyatlar berilib har bir psixolog o'zining yechimlari bilan



boshqalarga bo'lishadi va eng oxirida tajribali psixolog o'zining fikrlari bilan bo'lishadi. Bunda bir muammo yuzasidan bir necha xil yechimlar topiladi va psixologlar zanjiri paydo bo'ladi bu zanjir fikr almashinishga va o'zaro ko'mak berishga xizmat qiladi.

Diagnostika asbob-uskunalarining yetishmasligi: maktab o'quvchilarining ruhiy holatini, kasbiy moyilligini va intellektini aniqlaydigan zamonaviy, xalqaro testlarni o'zbek mentalitetiga moslashtirish va ularni yagona onlayn-platformaga joylashtirish. Psixologlarni qog'ozbozlikdan xalos qilib, diagnostika jarayonlarini planshet yoki kompyuter xonalarida onlayn o'tkazish. Natijalar avtomatik grafik va tahlil ko'rinishida psixolog ekranida aks etishi lozim.

Psixologning o'sha hududda yashashi va maxfiylik muammosiga quyidagicha yechimlar aniqladik: rotatsiya (hududiy almashinuv) tizimi: psixolog kadrlarni o'zlari yashaydigan mahalladagi maktabga emas, qo'shni yoki yaqin atrofdagi boshqa hudud maktablari uchun taqsimlash. Bu o'quvchi va psixolog o'rtasidagi shaxsiy aloqalarni cheklaydi.

Psixolog kadrlarning yetishmasligi: odatda bitta maktabda bitta psixolog ishlaydi ammo bu butun boshli maktab uchun yetarli emas: kadrlar yetishmaydigan hududlarda bir nechta kichik maktablar uchun yagona "mobil psixologik guruh"larni tashkil etish yoki uzoq hududlar uchun masofaviy (onlayn) konsultativ yordam xizmatini yo'lga qo'yish. Albatta, shaxsiy ma'lumotlarni muhofazasiga qat'iy e'tibor bergan holatda.

Xulosa

O'rganishlarimiz natijasida ma'lum bo'ldiki, maktab psixologlarining to'laqonli ishlashiga bir qator jiddiy omillar xalaqit bermoqda. Bularga mutaxassislarning texnologiyalardan yetarlicha foydalana olmasligi, maktablarda metodik jihozlarning yetishmasligi hamda kadrlar taqchilligi kiradi. Shu bilan birga, universitetni bitirgan yosh kadrlar amaliy tajribaga ega emasligi va ko'pincha o'zlari yashaydigan mahalladagi maktabga ishga kirib, bolalar bilan ishonchli muloqot o'rnatishda olmasligi ham bugungi kunning dolzarb muammolaridir. Maktab tizimida psixologik xizmat ko'rsatish usullarini takomillashtirishning psixologik xususiyatlariga biz mana shunday yechimlar topdik.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shonkoff, J. P., & Phillips, D. A. (2000). From Neurons to Neighborhoods: The Science of Early Childhood Development. National Academy Press.
2. World Health Organization (WHO). (2012). Risks to mental health: An overview of vulnerabilities and risk factors.
3. Hyson, M. (2004). The emotional development of young children: Building an emotioncentered curriculum. Teachers College Press.
4. National Scientific Council on the Developing Child (2015). Supportive relationships and active skill-building strengthen the foundations of resilience.
5. Ergash G'oziev "Ontogenez psixologiyasi", 2010 y
6. P.Kelder "Yoshlar sirlari", 2011 y
7. Ibragimovna Y. O. Organization of independent work of students as a means of increasing the professional and communicative competence of future teachers //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. - 2021. – T– №.
8. <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/3074/2039>
9. <https://youtu.be/70x9Ea4w1Bs?si=3TMogsDTS7-7OYMB>

